

MILLIY QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

A.Xolmatova

“University of business and Scinse”

nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi.

Xonzoda Xayrullaeva

“University of business and Scinse”

*nodavlat oliy ta'lim muassasasi
maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda yanggi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonlarda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etishi haqida so'z boradi. O'zbekistonda yanggi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.

kalit so'zlar : Milliy qadriyat, Laparlari, Axloq, millat elat, Qadriyatlar, Oila, Maxalla, milliy didaktik o'yinlar.

KIRISH. O'zbekiston o'z taraqqiyoti tarixining yanggi davriga qadam qo'ydi. Jahon hamjamiyati „Yanggi O'zbekiston“deya e'tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatlarini barpo etish yo'lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng ma'rifatli jamiyatni qaror toptirishning huquqiy asoslarida shakllantirilmoqda. Mamlakatda aholi ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirish. O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. Hayotimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar tufayli odamlarning onggu tafakkuri o'zgarib bormoqda.

Qadriyatlar deganda bir narsa va voqealar , jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar „milliylik“ „ma'naviyat“ va „qadriyatlar“ tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sohasida yuksak layoqatlarni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishi e'tibor beradi .

Milliy xarakterida , hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy , huquqiy siyosiy ma'daniyat sohalaridagi xatti xarakatlarida ham

ma'lum ijobiy tavofutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha, „morolis“ xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloq me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar onggiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy ma'daniyatning shakllanishida ko'rinadi. Axloqiy ong-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq atvor qoidalari, mezonlar shuningdek milliy istiqlol g'oyasining ongida aks ettirish.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy ma'daniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularidagi suhbat, baxs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan ilm-fan, ma'daniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarini qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashxur qilayotgan, uning obro-e'tiborining o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalqm qahramonlari namunasida shakllantiriladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, xis-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoqarashlik tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati muammosining rivojlanib borishini belgilab boruvchi dialektiv qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lishi, o'zida irodaviy sifatlarini tarbiyalash olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislarlarni mustaqil o'zbekiston respublikasi hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloq mazmundagi suhbat, ma'ruza, baxs-munozara, konferensiya seminar hamda debatlaridan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

NATIJA VA TAHLIL

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlaridan foydalanishning ahamiyati va o'rnini katta . Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi . Biron-bir jamiyat imkoniyatlarini , odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi . Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach , o'z taqdirining chinakam egasi , o'z tarixining ijodkori , o'ziga hos milliy ma'daniyatning sohibiga aylandi.Tarix xotirasi,xalqning jonajon o'kaning, davlatimiz hududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash , ta'bir joz bo'lsa , milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rn tutadi .

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda . Tarixiy tajriba , an'analarning meros bo'lib o'tishi bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarga tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'I lozim.

Bizning ma'daniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodif emas, Samarqand,Buxoro,Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohlarga aylangan .Xalqimizning etnik , ma'daniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas tuganmas manbaidir.Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar , ma'daniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo'lib ketgan .Etnik sabr-toqat , bag'rikenglik hayot boronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy ma'yorlariga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaxo an'analarni, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik ananalarini avaylab qabul qilganlar . Oila qadriyatlari va qon qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila-urug' Har bir xalqning o'ziga yarasha urf odatlari, marosimlari bo'ladi.Agar biz dunyo xalqlarining hayotiga nazar tashasak bir-biriga o'xshamagan , turli-tuman marosimlarni ko'ramiz Marosimlar jamiyat , xalq va shaxs hayoti-faoliyatidagi muhim o'zgarishlar ijtimoiy ahamiyatga molik voqea hodisalar bilan bog'liq bo'lib ,ular ibrat orqali tarbiyalash ,ruhiy estetik ta'sir ko'rsatish vaazifasini bajaradi .

Marosimlarda milliy,diniy urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o'z ifodasini topadi.

O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari , urf odatlari , marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega,Ular xalqning ma'naviy extiyojlari zamini paydo bo'lib , shakllanib , sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari , istaklari , turmush tarzi,axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq , millat, elat ularni ko'z qorachig'day avaylab asreashi, taraqqiy ettirish, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida etkazmog'I lozim . Darxaqiqat an'analalar, urf-odatlari , marosim va bayramlar xalqning , millatning ma'naviyati,qadriyatlarini ajralmas qismidir.O'zbekiston urf-

odatlar, marosimlari va bayramlari rang-barang hamda o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib bir necha ming yillar mobaynida shakllantirib kelgan. Masalan, bola tug'ilishi (chilla), beshik, sunnat to'yi, nigoh va motam marosimlarida o'rta osiyo xalqlarida xos umumiy o'xshashliklar mavjud.

O'zbeklarda jamoa munosabatlariga oid urf-odatlarni shaxarda maxilla, qishloqda qishloq jamoasi aks ettirgan, ularning faoliyatida erkaklar va bolalar qatnashgan. O'tmishda barcha udumlar, marosimlar qishloq va shaxarda maxilla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, ma'daniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim ro'l o'ynaydi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzda o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi.

Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yanggi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baxo beriladi.

Yosh avlodning hayotini mo'ljallari, <zamona qaxramoni> haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar va milliy g'oya-jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va astiqdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatda turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, haql qiluvchi omil bo'lib maydongacha chiqadi. O'zbekiston istiqbolning asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish o'z xalqining tarixi ma'daniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi iqtibolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi.

Har bir insonning mexnati, faoliyati hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bolishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Milliy ma'naviy meros qadriyatlarining tarkibi, ko'rinishlari Milliy ma'naviy meros, va qadriyatlar tushunchasi bolib uning tarkibi quyidagilardan iborat:

--Tarixiy meros va tarixiy xotira;

--Ma'daniy yodgorliklar, qadimiy qo'lyozmalar

- Ilm fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari
- san’at va milliy adabiyot
- Axloqiy fazilatlar
- Diniy qadryatlar
- Urf odat, ananna va marosimlar
- Ma’rifat, ta’lim tarbiya va xokazolar

O’zbek xalqi jahon ma’daniyati xazinasiga munosib xissa qo’shgan millatlar qatoridan faxrli o’rinni egalladi. Ma’daniy yodgorliklar me’morchilik san’ati namunalari qadimiy qo’lyozmalar

-Milliy ma’naviyatning bebaxo durdonalari , xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo’lgan boyliklardir.

Bularni avaylab asrash kelajak avlodlarga yetkazish ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir .

Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati ayniqsa san’at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat’iy nazar jahonda taniladi

Pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi .

Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat diniy qadryatlar munosib o’rin egallaydi va milliy o’zlikni anglashning muhim shart omili sifatida namoyon bo’ladi.

Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari xollarda o’zaro bog’liq bo’lib jamiyatning ma’naviy yukshalishida yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq , millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar , uning dunyo qarashi va hayotga bo’lgan munosabati o’ziga xos betakror xususiyatlari ayniqsa urf-odat va marosimlarda to’laqonlik namoyon bo’ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajarishda , milliy o’zlikni saqlashda yoshlarni tarbiyalashda muayyan g’oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimida vo’z o’rniga ega.

Xalqning kelajagi yoshlargfa bog’liq ekanligi qanchalik haqiqat bo’lsa bularni milliy ruhini tarbiyalash zaruriyati ham umum e’tirof etilgandi .

Milliy tarbiya – xalqning o’z-o’zini saqlash va istiqbolini taminlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadryatlarimizning o’rni juda katta .O’zbek xalqinning yoshlari milliy go’ya qadryatlar bilan yog’irilgan tarbiya olishi kerak.

Yoshlarimiz bugungi kunda xar tomonlama barkamol avlod bo’lib yetishib kelmoqda

Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarimiz dunyo qarashiga ham kuchli ta’sir ko’rsatmoqda albatta Ana shunday sharoitda ham biz kattalar yoshlarning barkamol bo’lib shakllanishiga katta e’tibor yaratib ularning milliy qadryatlarimizni e’zozlashlariga o’rgatib bormog’imiz asosiy vazifalarimizdan biridir. Bugungi kun yoshlari milliy urf-odatlarimizning shakllarini chuqur anglagan bo’lishlari lozim.

Ana shundagina kelajak avlod o'zbek ma'daniyatini saqlab qoladigan vatanni ximoya qiladigan insonlar bo'lib yetishadilar . Bu ezgu maqsalarning amalga oshirilishida ota-onalarning pedagog murabbiylarning hamjamiyat bo'lib harakat qilishlari lozim .

XULOSA

1) Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega, chunki ular yoshlarni o'z vataniga bo'lgan sevgi hurmat mexnatsevarlik va vijdonli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhimro'l o'ynaydi. Milliy qadriyatlar , o'z xalqining tarixiy me'rosi ma'daniyati va an'alarini aniqlash orqali yoshlarni o'zlikni hurmat qilishga milliy birlik va totuvlikka intilishlariga undaydi . Shuningdek bu qadriyatlar yoshlarni o'z hayotlarida mas'uliyatlik adolatlik va oriyatlik bo'lishiga o'rgatadi .bu esa ular uchun mustaxkam asos bo'lib kelajakda jamiyatning muvaffaqiyatlik va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi .Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida insoniy fazilatlarni shakllantirishda va ularni milliy ma'daniyatga asoslangan jamiyatning faol fuqarosiga aylantirishda muhim ahamiyatga ega .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Ilm-Ziyo-Zakovat “ 2023
- 2) Toshkent;...Nashriyot, 2023-480-bet
- 3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi . Toshkent O'zbekiston 2022
- 4) Toshkent , 2021-yil 9 bet
- 5) Ibragimova G,To'raqulova X.A,Alibekova R. „Milliy istiqlool g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoillar” fani bo'yicha yordamchi uslubiy qo'llanma -Toshkent Cho'lpon 2023
- 6) Pedagogika A.K.Munavvarovning umumiy taxriri ostida Toshkent O'qituvchi 1996
- 7) Sh. Mirziyoyev yanggi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchinchi nashr -T o'zbekiston >>nashriyoti 2022-B.440
- 8) Muhammad G'azzoliyning „Ihyo ulum oddin” ning tavba kitobi.